



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 526-535 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AGROKLASTERLARNING FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI YUTUQLARI VA INNOVATSION SALOHİYATIDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI



Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich
e.mail: sbx2112@mail.ru

Annotatsiya. Agrar sohani ilmiy asosda rivojlantirish bugungi kunda amalga oshirilayotgan davlat agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada agroklastlar faoliyatini innovatsion asosda tashkil qilish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-texnik taraqqiyot, innovatsiya, innovatsiyalarni tijoratlashtirish, innovatsion infratuzilma, innovatsion salohiyat, yuqori qo‘shilgan qiymat.

ПУТИ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА И ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА АГРОКЛАСТЕРОВ

Байжанов Сарсенгали Халмуратович
e.mail: sbx2112@mail.ru

Аннотация. Развитие аграрной отрасли на научной основе является одним из важнейших направлений государственной аграрной политики, реализуемой сегодня. Исходя из этого, в данной статье будут рассмотрены вопросы организации деятельности агрокластеров на инновационной основе.

Ключевые слова: научно-технический прогресс, инновации, коммерциализация инноваций, инновационная инфраструктура, инновационный потенциал, высокая добавленная стоимость.

WAYS OF RATIONAL USE OF ACHIEVEMENTS OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL PROGRESS AND INNOVATIVE POTENTIAL OF AGRO-CLUSTERS

Baizhanov Sarsengali Halmuratovich
e.mail: sbx2112@mail.ru

Annotation. The development of the agricultural sector on a scientific basis is one of the most important directions of the state agrarian policy implemented today. Based on

this, this article will address the issues of organizing the activities of agro-clusters on an innovative basis.

Keywords: scientific and technological progress, innovations, commercialization of innovations, innovative infrastructure, innovative potential, high added value.

Kirish. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendentsiyasi shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jabhalarida, ayniqsa global iqlim o'zgarishi ta'sirida sayyoramizning ko'plab mintaqalarida tobora avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'nalishlarda xizmat ko'rsatuvchi sub'yektlarning xo'jalik yuritish faoliyatlarini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etib, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi sohasining taraqqiyoti iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Xitoy, Hindiston, Braziliya, Chili va Vetnamdagi iqtisodiy o'sishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining jadal o'sishi bilan bog'liq bo'lgani holda, ayrim Afrika mamlakatlarining rivojlanishdan ortda qolishi, mazkur mamlakatlarning qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining yetarli darajada ta'minlay olmayotganliklari bilan izohlanadi.

Qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi bevosita bog'liqlikning mavjudligi evaziga qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan uzluksiz ta'min etadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligining moliyaviy saldosi deb ataluvchi, ya'ni qishloq xo'jaligidan keladigan pul oqimlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining o'sishini qo'llab-quvvatlagan holda, investitsiya sifatida yo'naltirilishi mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish borasida qishloq xo'jaligining mavjud salohiyatidan foydalanish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida ushbu salohiyatdan foydalanish borasida samarali yondashuvlarni tanlab olish va qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanishning zamonaviy usul va vositalarini o'zlashtirish daromad darajasi past mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish bo'yicha faol siyosat olib bormoqda. Paxta xomashyosi eksportidan voz kechish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga katta e'tibor berish, tarqoq xo'jaliklar o'rniga klasterlar tuzish va qishloq xo'jaligi sektorini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi ishlab chiqarishlar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash bugungi kunda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada agroklastlar faoliyatini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan va bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar sharhi. BMTning "Firmalarning innovatsion samaradorligini oshirish: siyosiy imkoniyatlar va amaliy vositalar" hisobotida qayd etilishicha, innovatsion klaster innovatsiyalarni yaratishga hissa qo'shadigan tashkilotlar, ularning yetkazib beruvchi va iste'molchilari, ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin aloqalar tizimidan tashkil topgan tuzilmani ifoda etadi. Klaster bir-biri o'zaro bilan hamkorlik qiladigan va raqobatlashadigan tashkilotlarni birlashtiradi. Tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar vertikal va gorizontal tavsifga ega bo'lishi mumkin.

Klasterlar quyidagi sabab va omillar bois, ko'proq yangiliklarni yaratish va joriy qilishga moyil, deb hisoblanadi (Markov, 2006):

klasterga a'zo tashkilotlar xaridor va mijozlarning ehtiyojlariga yetarlicha va tez javob bera oladilar;

klasterga a'zolik tashkilotlar tomonidan iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida qo'llaniluvchi yangi texnologiyalardan foydalanishni osonlashtiradi;

innovatsion jarayonlarga ta'minotchi va iste'molchilar, shuningdek boshqa tarmoq tashkilotlari ham kiritiladi;

firmalar o'rtasida kooperatsion aloqalarning rivojlanishi hisobiga ITTKIilarini amalga oshirishga doir xarajatlar pasayadi;

klasterda tashkilotlar doimiy tarzda raqobat bosimida bo'ladilar, bu esa o'z navbatida, o'z xo'jalik faoliyatini o'xshash tashkilotlar faoliyati bilan taqqoslash imkoniyatini beradi.

G. A. Yashevaning tak'kidlashicha, xorij tajribasi klaster tuzilmalarining xilma-xilligini ko'rsatadi, bunda ularning unsurlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, masalan (Yasheva, 2009):

qiymat zanjirida bir-biriga bog'langan mahsulotlar;

mahsulot va iqtisodiyot sektorlari;

o'zaro bog'liq firmalar, ta'minotchilar, iste'molchilar;

iqtisodiyot sektorlari;

hukumat idoralari, tadbirkorlik sub'yektlari, muassasalar;

ishlab chiqarish korxonalar, xizmat ko'rsatish korxonalar, davlat tuzilmalari va konsalting firmalari, hukumat idoralari, uyushmalar;

mahsulotlar, ishlab chiqaruvchilar, ta'lim, ilmiy-tadqiqot, savdo tashkilotlari, davlat agentliklari, boshqa klasterlar;

maxsus resurslar, ixtisoslashgan xizmatlar, turdosh tarmoqlar, asosiy mahsulotlar, iste'molchilar;

ta'minotchilar, ishlab chiqaruvchilar, xaridorlar.

M. P. Voynarenko klaster tuzilmasida 3 ta o'zaro bog'liq sektorlarni ajratib ko'rsatishni taklif qiladi (Voynarenko, 2011):

biznes: tadbirkorlik tuzilmalari, jamiyatlar, tijorat banklari;

hukumat: mahalliy hokimiyat idoralari, soliq ma'murchiligi, tartibga soluvchi tuzilmalar;

institutlar: universitet va ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari, savdo-sanoat palatasi.

G. A. Yasheva ham, klasterning 3 tuzilmaviy unsurlarini ajratib ko'rsatadi (Yasheva, 2009):

ishlab chiqaruvchilar, bir-birini to'ldiruvchi tarmoqlar, resurslar va xizmatlar yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, xaridorlar hamda ilmiy-ma'rifiy markazni o'z ichiga olgan "biznes" unsuri (klasterning "o'zagi");

universitet, biznes maktab, turli xil uyushma, savdo-sanoat palatasi va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "mahalliy muassasalar" unsuri;

davlat tashkilotlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarini o'z ichiga oluvchi, "davlat va hududiy boshqaruv organlari" unsuri.

Tadqiqotchi Fayziyeva agroklasterning faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan klaster tuzilmalarining ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy eta olish, ya'ni tijoratlashtirish imkoniyatlari bilan baholaydi (Fayziyeva, 2022).

Mahalliy mutaxassislardan yana biri agroklasterning raqamlashtirish imkoniyatlarini yuqori baholaydi (Sharipovna, 2024).

Umuman olganda agroklasterning tizimi mamlakat iqtisodiyoti uchun bir muncha yangi bo'lganligi bois bu borada tizimli ilmiy izlanishlar o'tkazish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish ko'p jihatdan sohaga ilmiy-tadqiqot natijalarini izchil joriy etish, ta'lim-fan-ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini yo'lga qo'yishga ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etishning muhim bo'g'ini sanaluvchi agroklasterning ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish masalalarini tadqiq qilishda ilmiy bilishning umumlashtirish, guruhlash, tasniflash kabi usullaridan keng foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan meva, sabzavot va poliz hamda chorvachilik mahsulotlarining asosiy qismi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Dehqon xo'jaliklari mazkur qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishining katta ulushiga ega bo'lishiga qaramasdan ularning moliyaviy imkoniyatlari chegaralangan.

Qishloq xo'jaligida innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligidagi faol investitsiya jarayoni nafaqat sanoatning miqdoriy ko'rsatkichlarini oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash, tovarlilik darajasini oshirish, qishloq xo'jaligida innovatsion komponentning ishlash modelini ham o'zgartirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligida innovatsion komponent faoliyatining kontseptual modeli an'anaviy tarzda faoliyat yurituvchi institutsional muhitga asoslanadi. Uning vazifasi innovatsion jarayonni kadrlar bilan ta'minlash, fundamental tadqiqotlar olib borish, eksperimental maydonlarni tashkil etish va boshqalardan iborat.

O'zbekistondagi institutsional muhitning maqsadli yo'nalishlari ko'p jihatdan davlatga - siyosiy vaziyatga va ijtimoiy munosabatlar holatining strategik qarashlariga bog'liq. Asosiy yangilik sifatida ko'rib chiqilayotgan kontseptual modelning ishlashi doirasida u uchta blok ajratiladi:


- ixtisoslashgan davlat tashkilotlari va muassasalari;
- muhandislik va infratuzilma sohasi, infratuzilma bloki;
- ishlab chiqarish va infratuzilmani boshqarishning zamonaviy tizimlari.

Qishloq xo'jaligi innovatsion tashkil etuvchilari, ya'ni "Agromarkaz"ning o'ziga xosligi xarajatlarni qisqartirishning zamonaviy va istiqbolli yondashuv-larida, qishloq xo'jaligida innovatsion mahsulot yaratishda, shuningdek, mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarni xalqaro oziq - ovqat bozorlarida raqobatbardoshligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

"Agromarkaz"ning asosiy faoliyati quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bo'limlarni o'z ichiga oladi:

Agrolab - o'simlik va tuproq diagnostikasi bo'yicha zamonaviy laboratoriya. Yer unumdorligi, oziq moddalarning yetib borishi va o'simliklar tomonidan o'zlashtirilish

darajasi, namlikning mavjudligi, o'simliklarni turli zararkunanda va hasharotlardan himoya qilish, ularni zarur jihoz va mahsulotlar bilan ta'minlash kabi xizmatlarni ko'rsatadi;



1- rasm. Qishloq xo'jaligida innovatsion komponentning amal qilishi kontseptual modeli

Agromarket - qishloq xo'jaligi mahsulotlari do'koni;


Agronom, veterinar va laboratoriya onlayn maslahatchilar;

Agromarkaz tasarrufidagi mini-texnika yordamida ferma yoki bog'larda xizmat ko'rsatish;

Call Center - yagona raqam bo'yicha maslahat va xizmatlar olishni tashkillashtirish;

Avtomatlashtirilgan bank xizmatlarini ko'rsatish markazi.

“Agrozamin – O'zimizniki” - bu fermer va tomorqa er egalari uchun maxsus chakana savdo platformasi. Ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga ular yetishtirgan yoki ishlab chiqargan mahsulotni tez va oson sotish imkoniyati taqdim etiladi. Xaridorlar esa o'zlariga kerakli tovarni qulay qidiruv tizimi orqali topishi, buyurtma qilishi va sotib olishi mumkin bo'ladi. Servis katalogi agrar soha bilan bog'liq 100 dan ortiq yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat markazi so'ngi yillarda qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda bir nechta raqamli yechimlarni joriy qilmoqda.



2-rasm. Qishloq xo'jaligida yirik integratsion tuzilmalar faoliyatining innovatsion tarkibiy qismining kontseptual modeli

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosini yirik integratsiya tuzilmalari, asosan agroklastlar tashkil qiladi. Ular ITTKI ni moliyalashtirishda o'z mablag'lari va hukumat mablag'lari bilan ta'minlangan. Ularning innovatsion faoliyatini amalga oshirish tizimida ilmiy yangilikni ta'minlovchi unsurlar mavjud. Qishloq xo'jaligidagi yirik integratsion birlashmalarining innovatsion komponenti hali rivojlanayotgan tuzilma bo'lib, bu uning zamonaviy rivojlanishining unsurlari: texnologiyalar transfer markazlari va raqamli poligonlarni ajratib ko'rsatish bilan tasdiqlangan. Bular ko'rib chiqilayotgan qishloq xo'jaligi tashkilotlari iqtisodiy o'sishining innovatsion tarkibiy qismining ilmiy yangiligini ta'minlovchi yagona unsurlari bo'lmasada, eng ahamiyatlilari deb aytishimiz mumkin.

Texnologiyalar transferi markazlari oliy ta'lim tashkilotlari negizida davlat tashabbusi bilan ham, tarkibiy bo'linmalar sifatida qishloq xo'jaligidagi yirik integratsion birlashmalar tashabbusi bilan ham shakllantirilishi mumkin. Ularning vazifasi optimallashtirish, ya'ni aniq shart – sharoitlarda eng maqbul ishlab chiqarish va/yoki tashkiliy texnologiyalarni topish, shu bilan birga ulardan masshtabli foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Milliy bozorda asosan oligopolistik va monopolistik tavsifdagi bozor tuzilmalarining turlari rivojlangan. Bu holat innovatsion yechimlarni yaratish va amalga oshirish uchun noqulay, ammo bu jarayonni bunday tashkilotlar faoliyatidan butunlay chiqarib tashlamaydi.

Monopolistik va oligopolistik bozorlardagi yirik bozor birlashmalari ikki holatda innovatsion yechimlarni yaratadilar va amalga oshiradilar:

- tarkibiy o'zgarishlar shuni talab qilganda, global bozorlarda raqobat kurashi talablaridan, ya'ni ob'yektiv sabablarga ko'ra;
- davlatning innovatsion siyosatini amalga oshirishda va (yoki) o'zining innovatsion rivojlanish dasturlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish holatlarida, ya'ni sub'yektiv sabablarga ko'ra.

Yirik qishloq xo'jaligi tuzilmalariga birlashtirilmagan shartli mustaqil qishloq xo'jaligi tashkilotlarining innovatsion tarkibiy qismining faoliyati va rivojlanish sohasida o'ziga xos xususiyatlar mavjud.

Shartli mustaqil qishloq xo'jaligi tashkilotlari faoliyatining innovatsion tarkibiy qismi taklif etilayotgan kontseptual modelining asosiy yangiligi innovatsion texnologiyalarni outsorsing orqali tashkiliy, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlariga o'tkazilishidir.

Bunday mexanizm qishloq xo'jaligi tashkilotiga innovatsion mahsulotni sinab ko'rish, outsorsingda innovatsion yechimlardan foydalanish va o'z bo'linmasini yaratish xarajatlarini hisoblash va o'zaro bog'lash imkonini beradi. Masalan, dronlardan foydalanish. Dronlar bazasini yaratish qarori qabul qilinganda nafaqat iqtisodiy tarkibiy qism, balki ekin ekiladigan qishloq xo'jaligi erlari maydoni ham muhimdir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligida iqtisodiy o'sishning innovatsion komponentini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlandi. Tadqiqotlar sohada innovatsion rivojlanishni cheklovchi quyidagi omillarni ko'rsatmoqda: moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, innovatsion infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi sababli innovatsiyalarga ehtiyojning

yo'qligi, yangi tovar (ish, xizmat)larga talabning pastligi, innovatsiyalarning qimmatligi, yangi texnologiyalar to'g'risida axborot yo'qligi, sotish bozorlari haqida axborotga ega emasliklari.

Agrosanoat majmuida strategik tadqiqotlar va prognozlash ishlari tizimli tashkil etilmayotganligi sababli soha va uning tarmoqlarida mavjud muammolarni tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan xulosalarga tayangan holda rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha yaxlit tizim yaratilmagan.

Natijada, agrar sohada ta'lim, ilm-fan, innovatsion faoliyat va ishlab chiqarishning chuqur integratsiyasini ta'minlash hamda ushbu tizimning samarali boshqaruv bo'g'inlarini shakllantirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida belgilab qo'yilgan maqsadli ko'rsatkichlarning aksariyatiga erishilmay qolmoqda. Tarmoqda iqtisodiy o'sish ekstensiv omillar hisobiga ta'minlanishda davom etmoqda. Respublikamizda ITTKI ga xarajatlarning so'ngi yillarda ortib borishi va sohada patent talabnomalari sonining qisqarib borishi sohada innovatsiyalarni joriy qilish bilan bog'liq quyidagi qator muammolarning mavjudligidan darak beradi:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklari tomonidan kechiktirilgan va ba'zan samarasiz tartibga solish choralari natijasida kuchaygan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki narxlari va eksport narxlari o'rtasidagi nomutanosibliklar;

Rivojlanish institutlari tomonidan qishloq xo'jaligida loyihalarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'ning ahamiyatsiz ulushi, shu sababli ular agrar ishlab chiqarishi sub'yektlari faoliyatining innovatsion tarkibiy qismining taqdim etilgan kontseptual modellariga kiritilmagan;

Sohada asosiy turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining ulushi 66 % ni tashkil etmoqda. Bu toifa xo'jaliklarning moliyaviy imkoniyatlari chegaralanganligi bois innovatsiyalarni asosan o'zlashtiruvchilari bo'lib qolishmoqda. Innovatsiyalarni joriy etishda nisbatan mustahkam moliyaviy bazaga ega bo'lgan agroklasterning o'rni beqiyosdir. Shu bilan birga ushbu toifa investitsiyalarni jalb etishda afzalliklarga ega;

ishlab chiqarish natijalari va mehnat unumdorligini baholash hududlardagi haqqoniy vaziyatga to'g'ri kelmaydi;

aniq va ishonchli ma'lumotlarning yo'qligi yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni cheklaydi, shuningdek, ularning sohaga ta'sirini xolisona baholash imkonini bermaydi;

marketing faoliyatining samarasizligi, bozor tahlilining deyarli yo'qligi fermer xo'jaliklari va boshqa agrofimalarning biznes rejalarini ishlab chiqish yoki faoliyatni to'g'ri rejalashtirishda mavjud va o'zgaruvchan bozor imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, muammoning muhim tarkibiy qismi - bilim va axborotlar almashinuvini ta'minlaydigan va xususiy biznes faoliyatiga asoslangan yaxshi ishlaydigan mexanizmning yo'qligidir. Bizning fikrimizcha, bunday o'zaro aloqani o'rnatishga yordam beradigan istiqbolli vositalar quyidagilar bo'lishi zarur:

1. Sohoni rivojlantirishda klaster yondashuvini tatbiq etish. Bizning fikrimizcha, ushbu vosita eng istiqbolli hisoblanadi, chunki klasterning asosiy ishtirokchilari kichik va o'rta biznes vakillaridir. Shu bilan birga, butun MDH davlatlari hududida klasterlarning rivojlanishi (bu holatda O'zbekiston ham bundan mustasno emas) ushbu hududlarda makonli joylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ma'lum qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, amaliyot va tajriba shuni ko'rsatadiki, yuqoridan tashabbus bilan klasterlar yaratishga urinishlar kamdan-kam hollarda muvaffaqiyatli yakunlanadi.

2. Texnologik platformani yaratish. Ko'pgina mutaxassislar klaster va texnologik platformani tenglashtirishga moyildirlar, bu to'g'ri emas. Ayni paytda, texnologik platformalarni yaratish muammolari odatda klasterlarga nisbatan tavsiflangan muammolarga o'xshashligini ta'kidlash kerak.

3. Davlat-xususiy sheriklik vositalaridan foydalanishni kengaytirishni O'zbekiston agrosanoat majmuasida o'ziga xos axborot infratuzilmasini yaratishning eng istiqbolli yo'nalishi deb hisoblash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bayjanov Sarsengaliy Xalmuratovich. Agroklasterni rivojlantirishning institutsional asoslari va faoliyat yuritish mexanizmlarini takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2023. – 137 b.

2. Файзиева Ш. Ш. Роль сельскохозяйственных агрокластеров в повышении экономической эффективности // *Gospodarka i Innowacje*. – 2022. – Т. 22. – С. 465-470.

3. The Cluster Policies Whitebook [Electronic resource] / T. Andersson [et al.]. – Malmö : IKED, 2004. – Mode of access: <http://led.co.za/sites/led.co.za/files/documents/155.pdf>. – Date of access: 10.12.2011. P.13.

4. Яшева, Г.А. Кластеры в повышении конкурентоспособности организаций химической и нефтехимической промышленности Республики Беларусь / Г.А. Яшева, Е.А. Костюченко // Социально-экономическое развитие организаций и регионов Беларуси: цели, приоритеты, механизмы структурных преобразований : материалы докладов Междунар. науч.-практ. конф. : в 2 ч. / ВГТУ. – Витебск, 2011. – Ч. 2. – С. 242.

5. Марков, Л.С. Кластеры: формализация взаимосвязей в неформализованных производственных структурах / Л.С. Марков, М.А. Ягольницер. – Новосибирск : ИЭООП СО РАН, 2006. – С.43.

6. Яшева, Г.А. Кластерная концепция повышения конкурентоспособности предприятий в контексте сетевого сотрудничества и государственно-частного партнерства / Г.А. Яшева. – Витебск : ВГТУ, 2009. – С.17.

7. Solvell, O. The Cluster Initiative Greenbook / O. Solvell, G. Lindqvist, C. Ketels. – Stockholm, 2003. <http://www.cluster-research.org/dldocs/GreenbookSep03.pdf>. – Date of access: 19.11.2011. P.18.

8. Войнаренко, М.П. Кластерные технологии в системе развития предпринимательства, интеграции и привлечения инвестиций [Электронный ресурс] / М.П. Войнаренко // Social Aspects and Financing of Industrial Restructuring : regional forum, Moscow, 26 and 27 Nov. 2003. – Режим доступа: www.unecce.org/ie/wp8/documents/voynarenko.pdf. – Дата доступа: 26.01.2012.

9. Абдувохидов А. и др. Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш сифатини аниқлаш ва унинг кўрсаткичлари таҳлили // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2022. – Т. 23. – №. 4. – С. 16-31.
10. Enright M. J. Survey on the characterization of regional clusters: initial results. Working Paper / Institute of Economics and Business Strategy. Hong Kong ; Barcelona, Spain : The Competitiveness Institute, 2000. 22 p.
11. Мантаева Э. И., Куркудинова Е. В. Мировой опыт кластерной модели развития // *УЭКС*. 2012. №2 (38).
12. Сазонов С.П. К вопросу о государственно-частном партнерстве // *Известия Волгоградского государственного технического университета*. 2011. № 14. С. 19–21.
13. Рассадина А.К. Роль кластеров в современной экономике: зарубежный опыт *Вестник Московского университета. Серия 6: Экономика*. - М., 2014. - № 5. - С.85-101.
14. Нурмухаммидова М. Х. и др. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ // *ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ILMIY JURNALI*. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 401-417.
15. Абдувохидов А., Расулов С. СУҒОРИЛАДИГАН ЕРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ // *Iqtisodiyot va ta'lim*. – 2023. – Т. 24. – №. 4. – С. 366-376.
16. Абдувахидов А. А. и др. АГРАР СЕКТОРДА ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ // *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 9-12.
17. Sharipovna N. M., Rustamjon o'g'li T. O. QISHLOQ XO 'JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI // *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*. – 2024. – Т. 3. – №. 27. – С. 269-275.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

